




ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI 2020-2021 O'QUV YILI BOSHIGA



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son farmonida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilmfan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlaramalga oshirilmoqda.

2020/2021-o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan *kash-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan* iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

**2020-2021 O'QUV YILI BOSHIDA O'RTA-MAXSUS,
KASB-HUNAR TA'LIM MUASSASALARI SONI**



Ma'lumot uchun

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va texnikumlardan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar tizimi o'quvchilarga egallagan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.



**2020-2021 o'quv yilida akademik litseylarning
asosiy ko'rsatkichlari, (birlik)**



Muassasalar soni

5

O'quvchilar soni

2164

**Qabul qilingan
o'quvchilar soni**

1279

Bitiruvchilar soni


890

**Pedagog xodimlar
soni**

235

Andijon viloyatidagi kasb-hunar maktablarning asosiy ko'rsatkichlari

2020-2021 o'quv yili boshiga kasb-hunar maktablari soni, (birlik)



Kasb-hunar maktablari o'quvchilari tarkibi



2020-2021 o'quv yilida Andijon viloyati bo'yicha 33 ta kasb-hunar maktablari o'z faoliyatini boshladi.

Ularda 8440 nafar o'quvchilar bilim olmoqda. Jami o'quvchilarning 2529 nafari, 30,0 % ni qizlar tashkil etadi.

O'quvchilarning 1592 nafari -15 yosh, 6422 nafari 16 yosh, 426 nafari 17 yosh va undan yuqori yoshdagilardan iborat.



Andijon viloyati bo'yicha kasb-hunar maktablari o'quvchilari soni , (birlik)

Andijon shahar	1460	530	Izboskan tuman
Xonobod shahar	232	514	Marxamat tuman
Andijon tuman	634	559	Oltinko'l tuman
Asaka tuman	889	203	Ulug'nor tuman
Baliqchi tuman	558	270	Xo'jaobod tuman
Bo'ston tuman	250	535	Paxtaobod tuman
Buloq boshi tuman	418	473	Shahrixon tuman
Jalaquduq tuman	415	500	Qo'rg'ontepa tuman



Andijon viloyati kasb-hunar maktablarida pedagog xodimlar tarkibi



Kasb-hunar maktablaridagi pedagog xodimlar soni 761 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etadi. Ulardan 686 nafari oliy, 75 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega. O'rindosh o'qituvchilar soni 64 nafardan iborat.

Andijon viloyati kasb-hunar maktablariidagi o'qituvchilar soni , (birlik)



2020-2021 o'quv yilida Andijon viloyati kasb-hunar kollejlari

Ma'lumot uchun


Kasb-hunar kollejlari - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir. Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.



**Andijon viloyati bo'yicha kasb-hunar
kollejlari soni, (birlik)**



Kasb-hunar kollejlariidagi o'quvchilar soni, (birlik)



Andijon viloyati kasb-hunar kollejlaridagi pedagog xodimlar tarkibi

Andijon viloyat kasb-hunar kollejlarida jami 347 nafar pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) xizmat qilmoqda. Ularning 329 nafari oliy, qolgan 18 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega. O'qituvchilarning 257 nafari yoki 78,1 % ayollardan iborat.

O'qituvchilarning umumiy sonidan 25 nafar informatika, 23 nafar chet tili o'qituvchilari va 23 nafar ishlab chiqarish bo'yicha o'qitish ustalari o'quvchilarga ta'lim bermoqda.



Andijon viloyati kasb-hunar kollejlaridagi
pedagog xodimlar soni, (birlik)



2020-2021 o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi texnikumlar faoliyati

2020-2021 o'quv yilida Andijon viloyatida 17 ta texnikum o'z faoliyatini boshladi. Ularda 4905 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqdalar. Ularning 2755 nafarini , yoki (56,2 %) ni qizlar tashkil etadi



Ma'lumot uchun

O'rta maxsus professional ta'lim **texnikumlarda** umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.



2020-2021 o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi
texnikumlar soni, (birlik)

Viloyat bo'yicha - 17



Andijon sh - 4

Oltinko'l - 1

Xonobod sh - 1

Marxamat - 2

Andijon - 1

Paxtaobod - 2

Asaka - 1

Shahrixon - 2


Bo'ston - 1

Qo'rg'ontepa - 1

Izboskan - 1



Andijon viloyati texnikumlarida o'qiyotgan o'quvchilar soni, (birlik)




**Andijon viloyati bo'yicha texnikumlardagi
o'qituvchilar tarkibi**



**2020-2021 o'quv
yili boshida viloyat
texnikumlarida
jami 443 nafar
(o'rindoshlarsiz)
pedagog xodimlar
xizmat qilmoqda.
Ularning 428 nafari
oliy, qolgan 15
nafari o'rta-maxsus
ma'lumotga ega.
Pedagog
xodimlarning 277
nafarini ayollardan
iborat.**




Andijon viloyati bo'yicha texnikumlardagi o'qituvchilar soni , (birlik)



2020-2021 o'quv yili boshida Andijon viloyati texnikumlarida jami pedagog xodimlar soni 479 nafar (ulardan 36 nafari o'rindosh) hisoblanadi. Chet tili fani o'qituvchilari soni 36 nafarni, informatika fani bo'yicha 27 nafarni tashkil etadi.



Texnikumlarda bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, (birlik)



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Telefon: (0374) 224-82-69